

HIND TILSHUNOSLIGINING TARIXIY AHAMIYATI

ADCHTI

Ingliz filologiyasi o'qitish metodikasi
va tarjimashunoslik fakultetining
Arab tili yo'nalishi 101-guruh
talabasi

Otaboyeva Mohlaroyim Bahriddin qizi
Ilmiy maslahatchi: Kabulova Umidaxon

Tel: +998502070837

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi Hind tilshunosligidagi yozma manbalarning ahamiyati, tilining boyligi va ularning tarixdagi ilk grammatikasi haqida fikr yuritiladi. Bilamizki, Tilshunoslik fanining ilk bor asos solingan o'rni – Hindistondir. Chunki eng birinchi bu tilni o'rganishga qiziqish shu yerda boshlanganligi haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: sanskrit, Veda, grammatika, nazm, qoida, ehtiyoj, til, usul, lug'at.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение письменных источников в древнеиндийской лингвистике, богатство её языка и первая в истории грамматика. Известно, что местом зарождения лингвистики является Индия. Считается, что именно здесь зародился первый интерес к изучению этого языка.

Ключевые слова: санскрит, Веды, грамматика, поэзия, правило, потребность, язык, метод, словарь.

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi Hind tilshunosligidagi yozma manbalarning ahamiyati, tilining boyligi va ularning tarixdagi ilk grammatikasi haqida fikr yuritiladi. Bilamizki, Tilshunoslik fanining ilk bor asos solingan o'rni – Hindistondir. Chunki eng birinchi bu tilni o'rganishga qiziqish shu yerda boshlanganligi haqida fikrlar yuritiladi.

Abstract: This article discusses the importance of written sources in ancient Indian linguistics, the richness of its language and the first grammar in the history of documentation. We know that the place where the science of linguistics was first founded is India. Because the first attempts to study this language are made in this direction.

Keywords: *sanskrit, Veda, grammar, poetry, rule, observance, language, method, dictionary.*

Tilshunoslik tarixining ayrim mutaxassislari, jumladan, N.A.Kondrashov qadimgi Hindistonni til haqidagi fanning beshigi sifatida baholaydi.

Qadimgi Hindistonda til bilan shug'ullanish dastlab sof amaliy ahamiyatga ega bo'lgan : davr o'tishi bilan qadimgi yozma yodgorliklarning turli o'zgarishlarga uchragan elementlarini qayta tiklash, izohlash lozim bo'lgan. Buning uchun hind olimlari eramizdan 15 asr ilgari yozilgan Vedalar¹ni, eramizdan ilgarigi birinchi ming yillarda yozilgan Sanskrit² yodnomalarini o'rganganlar³.

Hindlar qadimiy davrning eng buyuk fonetikachilari va grammatikachilari sifatida tanilganlar. Ular fonetika sohasida yunonlardan ham oldin unli va undosh tovushlarni farqlaganlar, portlovchi va sirg'aluvchi, jarangli va jarangsiz tovushlarni, tovush birikmalarini, bo'g'in, urg'u, cho'ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni bilganlar⁴.

Hind tilshunosligi tarixi shuni ko'rsatadiki, bir tilning taraqqiyotidagi turli tarixiy davrlarga xos bo'lgan turli xususiyatlarning yuzaga kelishi bu fanning yaratilishiga ijobiy ta'sir qiladi⁵.

Tarixdan barchamiz bilganimizdek, har qanday fan kishilarning amaliy ehtiyojini qondirish zarurati tufayli dunyoga kelgan. Masalan: narsalarni hisoblash ehtiyoji – matematika, yerni o'lchash ehtiyoji – geometriya, osmon jismlari harakatini

¹ 10 kitobdan iborat bo'lgan diniy madhiyalar, diniy qo'shiqlar va afsonalar to'plami.

² Keng ma'noda Vedalar tilini, epik asarlar va klassik sanskritni o'z ichiga oladi.

³ Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1972. 10-bet.

⁴ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013. 13-bet.

⁵ Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 9-bet

o'rganish – astronomiya kabi. Qadimgi Vedalar tilini, to'g'ri talaffuzini sharhlash ehtiyoji tilshunoslik fanining yuzaga kelishiga olib keladigan sabablardan biridir.

Dastlabki muqaddas hind qo'shiqlari miloddan 1500 yil oldin paydo bo'lgan deb taxmin qilinmoqda. Sanskrit tili miloddan avvalgi V asrdayoq jamiyatning kundalik aloqa vositasi vazifasini yo'qotib, o'lik tilga aylangan bo'lsa ham diniy va madaniy an'analarini o'zida saqlovchi mumtoz til sifatida saqlanib kelmoqda desak yanglishmasak kerak.

Miloddan 10 000 yil oldin Vedalardagi tushunarsiz bo'lib qolgan so'zlarni izohlovchi dastlabki lug'atlar paydo bo'la boshlagan.

Hind tilshunoslari fikr ifodalash birligi bo'lgan gapning muhimligini inkor qilmagan bo'lsalarda, sintaksis masalalari bilan maxsus shug'ullanmaganlar. Ular sintaksisda so'zlarning birikish tartibi, kelishik, zamon va mayl formalarinig birikishi kabi masalalarni o'rganish bilan chegaralandilar. So'z fikr ifodalash imkoniyatiga ega emas, ya'ni so'z gapdan tashqari mavjud emas deb, gapni tilning asosiy birligi deb hisoblaganlar⁶.

Qadimgi hindlarning eng mashxur tilshunosi – Paninidir. U bizning eramizgacha bo'lgan IV asrda yashab ijod etdi. Panini o'zigacha bo'lgan davr tilshunoslarining qo'lga kiritgan yutuqlarini umumlashtirib, ulardan foydalangan holda klassik sanskritning eng mashxur grammatikasini yozdi. Uning ushbu asari “Ashtadxyan” nomi bilan ataladi⁷.

Olimlarning ta'kidlashicha : Panini grammatikasi 4 000 ga yaqin qisqa va lo'nda she'riy usulda yozilgan, osonlik bilan esda qoladigan qoidalarni o'z ichiga oladi.

Panini grammatikasi sof empirik va tasviriy xarakterga ega bo'lib , unda Sanskrit tilining fonetikasiga, morfologiyasiga, so'z yasalihi va sintaksisga oid fikrlar jamlangan⁸.

⁶ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013. 12-bet.

⁷ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 2013. 14-bet.

⁸ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent, 2013. 11-bet.

Yuqoridagi ma'lumotlardan bilishimiz mumkinki, juda ko'p manbalarda tilshunoslik fanining tarixiy markazi, ya'ni beshigi sifatida Qadimgi Hindiston katta ahamiyat kasb etgan.

Ya'ni Qadimgi Hindistonda insonlar tilni yaxshi anglash ehtiyoji uchun tilshunoslik fanini qaysidir ma'noda o'zlari bilmagan holda kashf qilishgan.

Birinchi bo'lib Panini grammatikasining mazmunini, undagi g'oyani rus tilshunos olimi Otto Byotling izohlab bergan. Ushbu tadqiqot tili – undagi qoidalar nihoyatda ixcham va qisqa bo'lganligi asar tili o'ziga xos terminologiyaga egaligi sababli Panini tadqiqoti uzoq vaqtgacha yevropalik olimlarga tushunarli bo'lmadi⁹.

Shu o'rinda biz biroz Yaski haqida ma'lumotlarni ko'rib chiqsak:

Yaski (Yaska) Hindistonning mashhur tilshunosidir. U so'z hamda so'zning morfologik tarkibi, ma'nosi, vazifasi haqidagi fikrlarni yozib qoldirgan. Yaski so'zning predmetni bevosita aks ettirmasligini so'z bilan, ya'ni uning tovush tomoni bilan predmet o'rtasida ma'noning mavjudligini to'g'ri ta'kidlaydi. So'z ma'no tufayli predmetni nomlash imkoniyatiga egaligini qayd etadi¹⁰.

Qadimgi Hindistonning tilshunoslik sohasidagi yutuqlari ulkan bo'lib, ular o'z muvaffaqiyatlari bilan jahon tilshunosligi faniga katta hissa qo'shdilar. Ularning ta'limotlari, g'oyalari yunon va arab tilshunosligiga jiddiy ta'sir qildi. Hind tilshunosligi Yevropaga XVIII asrning o'rtalarida yetib keldi¹¹.

Ko'rishimiz mumkinki, Qadimgi Hindiston nafaqat tilshunoslik fanining beshigi bo'lib qolmay, balki, juda ko'p grammatikachi olimlarning vatani hamda birinchi nasriy usulda yozilgan grammatikaning makonidir.

Shu bilan birga ta'kidlashimiz lozimki, u yerdan juda ko'p tilning ravnaqi uchun foydasi tegadigan olimlar ham yetishib chiqqan ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

⁹ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent, 2013. 16-bet.

¹⁰ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent, 2013. 12-bet.

¹¹ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent, 2013. 14-bet.

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2013.
2. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: O‘qituvchi. 1972.
3. www.google.com. Murojaat sanasi: 02.12.2025.